

*Kaxarova Muxlisa Xakimovna*

*Toshkent shahar 355-sonli ayrim fanlar chuqur  
o'qitiladigan sinflar mavjud umumiy o'rta ta'lim maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida rivoyatning o'qitilishi, o'quvchilarga rivoyatlarning ahamiyati haqida haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** inson resurslarini boshqarish, muassasa, xodim, uslub, usul.

Bola tarbiyasida xalq og'zaki ijodining roli juda katta. O'zbek oilalarida bolalar turli rivoyatlarni eshitib, o'qib bilan ulg'ayadi. O'zbek momo va bobolarimizning bisotida bolalar uchun rivoyatlar bisyor. Bu juda ham yaxshi, chunki rivoyatlar bola tarbiyasida didaktik ahamiyatga ega bo'lib, tasavvurini kengaytirishda, ezgu fazilatlar shakllantirishda roli katta. Mustaqil O'zbekistonda milliy qadriyatlarimiz yanada rivojlangan hozirgi davrda xalq yaratgan merosini yosh avlod ongida tasavvur hosil qilish, umum insoniy qadriyatlarni har tomonlama o'rgatish hamda tatbiq etish asosiy masalalardan biridir.

Rivoyat (arab. hikoya qilmoq) — voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya; folklor janri. Hajmi qisqa, ikki yoki uch epizoddan tashkil topadi, an'anaviy uslubiy shaklga ega bo'lmaydi. Odatda, oddiy bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og'izdan og'izga o'tish jarayonida erkin talkin qilinadi. Rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog'liq hodisalar yotadi. G'oyaviy mazmuniga ko'ra, tarixiy hamda toponim Rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy Rivoyatda biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq hodisalar hikoya qilinadi, axloq va odobning ideal me'yorlari tashviq etilib, muayyan faktlar haqida axborot beriladi. Bunday Rivoyatlar Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab, Amir Temur, Sulton Mahmud va boshqa hayoti bilan bog'liq voqea va hodisalar asosida ham yaratilgan. Toponim Rivoyatlarda shahar, qishloq, qo'rg'on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Xotimasida odatda, hikoyadan maqsad ta'kidlanadi va muayyan fakt izoxlanadi. Rivoyatlar bizgacha ko'proq og'zaki, qisman yozma shaklda yetib kelgan. O'zbekistonda juda ko'p Rivoyatlar yozib olingan va ular xalqtarixi hamda madaniyestetik qarashlarini o'rganishda muhim manbadir.

Rivoyatlar mavzu doirasi nuqtai nazaridan asoslanib, tahlillar, misollar bilan yoritilgan bo'ladi. Rivoyatlarni izchil o'rganish va tatbiq etish yosh avlod kamoloti uchun muhim manba hisoblanadi. Bolalar ulg'aygan sari o'zlaridan kichiklarga ertaklar hamda rivoyatlar aytib berishga, ularni aqlli, vazmin bo'lishga, o'jar, injiq qiliqlarini tashlashga undaydilar. Ular ham o'zlarini kichik tarbiyachilar sifatida tutadilar. Umuman olganda, xalq og'zaki badiiy ijodi katta-yu kichik, yosh-u qari uchun birdek donishmandlik majmuasi hisoblanadi. Asrlar o'tsa-da, buyuk allomalarimiz asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari badiiy ifodalansa-da, xalq tafakkurining mahsuli bo'lgan folklor asarlari ma'naviy jihatdan olamshumul ahamiyat kasb etishda davom etaveradi. Ma'naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o'rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma'naviy qashshoq kimsa hayotda ro'y berayotgan voqealarga loqayd bo'ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo'lmas oqibatlariga olib keladi. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan,

xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma'naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan.

Yuqoridagi fikr hamda mulohazalarni asosiy missiya etib belgilagan holda, maktablarning 1-sinf o'qish kitobida berilgan "Harakatda barakat" rivoyati ham boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilarda har qanday holatda ham harakatdan to'xtamaslikni, jamoa bilan, guruh bilan birgalikda ezgu ishlarda birga turishni anglatadi. Har qanday vazifaning ham o'ziga yarasha mushkulotlari bo'lishini, ammo qo'limizdan kelgancha ushbu vazifalarni uddalashga harakat qilishimiz lozimligini ushbu rivoyatdan o'quvchilar anglab olishlari mumkin.

Ushbu rivoyat asosida ishlab chiqilgan 45 daqiqalik dars ishlanmasini ham taqdim qilamiz:

**Mavzu:** Rivoyatda ibrat bor

**Ta'limiy:** O'quvchilarning she'ri ifodali o'qish, mazmunini o'zlashtirish, xulosa chiqarish malakasini oshirish, kasblar haqida tushuncha berish. **F.k.1** matnlarning mazmunini to'liq yoki qisqartirib qayta aytib bera oladi;

**Tarbiyaviy:** Ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish.

Yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo'lish, yaxshini yomondan ajrata olish bilimni shakllantirish. **T.k.3.** shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi;** Dars jarayonida egallangan bilimlarni aniqlash, umumlashtirish, mustahkamlash.

Sinfning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qilish. **F.k.2.** o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi;

**Darsning turi :** an'anaviy,

**Dars metodi:** kichik gurunlarda ishlash, mustaqil ish metodi.

**Darsning jihozi,** Tolib Yo'ldosh portreti, to'plamlari, sahnani jihozlash uchun kerakli narsalar

**Darsning borishi**

T/R	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I.Tashkiliy qism :** Salomlashish , davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirib nazorat qilish.

**I. Tashkiliy qism:**

Bugungi kunda ta'lim sohasini isloh qilish, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarni o'z ish faoliyatidan chalg'itmaslik borasida Prezidentimiz SH.Mirziyoyev qarorlar, farmonlar, yoshlarni bo'sh paytini mazmunli tashkil etish, xalq farovonligini yaxshilash uchun esa 5 ta tashabbusni joriy etdi. Siz tashabbusni qay tartibda o'rgandingiz ?

Dunyolarni egallab

Cho'qqilarga chiqdik biz.

Yurtboshimiz madadkor

Qo'llar 5 ta tashabbus.

1-o'quvchi: Musiqa chal,she'rlar yoz  
Sen xoxlasang rasm chiz.  
Aktyor bo'lmoqchimisani?

Qo'llar 5ta tashabbus.

2-o'quvchi: Sport bilan shug'ullan  
Boks, tennis, suvda suz.  
Sport bilan chiniqasan

Qo'llar 5ta tashabbus

3-o'quvchi: Kompyuter asri bu  
Kerakli dasturlar tuz.  
Xalqqa tegsin zo'r foydang

Qo'llar 5ta tashabbus.

4-o'quvchi: Kitob nurdur,ilmning  
Dengizida sho'ng'i,suz  
Boshqararsan dunyoni

Qo'llar 5ta tashabbus.

1.Vatanimizda hozir qaysi fasl hukm surmoqda? U necha oy davom etadi?

2.Bahor faslida tabiatda qanday o'zgarishlar ro'y beradi?

3.Fasllarimiz haqida qanday she'rlar bilasiz?

o'quvchi: Bir yilda bor to'rt fasl  
Hech qolishmas zo'r,ahil  
Almashinib galma-gal  
Takrorlanar muttasil.

o'quvchi: Bahor kelar gul ochib,  
Daryolar oqar shoshib.  
Gulzorlarda raqs tushar,  
Kapalaklar quvlashib.

o'quvchi: Jazirama issiq yoz  
Ko'lda suzar o'rdak, g'oz  
Oromgohlar qo'ynida,  
Hordiq olib, ko'ngil yoz.

o'quvchi: Saxovatli oltin kuz,  
Mevalar chorlar: "Uz,uz!"  
Xirmon-xirmon paxta, don,  
Mo'l hosildan yorug' yuz.

o'quvchi: Oppoq-oppoq laylak qor  
Borliq misli paxtazor.  
Qorbo'ron o'ynash mazza,  
Dillarda qolmas g'ubor.

o'quvchi: Bahoru, yoz, kuz va qish,  
Cheksiz raxmat, ming olqish.  
Hayot go'zal, xop totli,  
So'nmasa istak xohish.

**II. O'tgan mavzuni so'rab baholash: \_\_O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish.**



III. Yangi  
bayoni

mavzuning

Zanjir, tandir, anjir.

Tohir tungacha to'p tepdi.

Shirin sharbatning shirasi shakardan shirin.

Gulnor gulzor oralab gullarni saraladi.

Non yasahasizmi,  
Sholi sanashasizmi?

- Tez aytish musobaqasini o'tkazing.



Qiziqarli topishmoqlardan toping.



**Harakatda barakat**

Bir o'rmonga o't ketibdi. Jonivorlarning bir qismi kuchlari yetgan narsa bilan suv tashib, o'tni o'chirmoqchi bo'libdi. Ikkinchi qismi esa, bundan hech narsa chiqmaydi, debdi va chetroqqa chiqib tomosha qilib turibdi.

Bir chumoli o'tni o'chirish uchun hovuchida suv olib ketayotgan ekan. Buni ko'rgan qarg'a uning ustidan kulib debdi: "Mana shu suving bilan olovni o'chiraman, deb o'ylayapsanmi?"

Chumoli unga javob beribdi: "Bilaman, bu suv bilan o'tni o'chirib bo'lmaydi. Lekin men bu harakatim bilan kim tomonda turganimni bilaman".

"Tarbiya kitobi"dan





IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.  
musobaqasi.

Darslik bilan ishlash: «Ifodali o'qish»



### Savollarga javob bering.

1. O'rmonda qanday voqea yuz beribdi?
2. Nega qarg'a chumolining ustidan kulibdi?
3. Siz chumolining o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz? Nima uchun?
4. Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?



#### Izohli lug'at:

Chumolini yana qumursqa deb ham aytishadi.



#### Topshiriqni bajaring.

- O'rmonga o't ketganda jonivorlar nima qilganini ayting.

**1-qism**

**2-qism**

- Rivoyatdan qarg'a va chumolining gaplarini topib o'qing.
- Qahramonlarga ta'rif bering.



Topishmoqni o'qing va mazmunini izohlang.

Kichkina mitti,  
Qo'limga olsam,  
Qovurg'asi sinib ketdi.



"T chizmasi" metodi	
O'zbek xalq ertaklari	Jaxon xalq ertaklari

**V. Baholash.** O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorli-gi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasi, to'g'ri va ravon o'qishi o'qutuvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy ballar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.



### VI. Uyga vazifa.



**Rivoyatni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Siz yana qanday rivoyatlarni bilasiz? Qahramonlarini rasmda ifodalang.**

Bu kabi rivoyatlarning maktab darsliklaridan o‘rin olishi yosh avlodning Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, do‘st bilan dushmani farqlash, hurmat izzat, mehnatga undash kabi ezgu amallarni yanada rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Bundan tashqari, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodi asosida tarbiyalash, milliy urf-odat, an‘ana, qadriyat va milliy-ma‘naviy meroslarimizni o‘quvchilarga xalq og‘zaki ijodidagi janrlar yordamida yetkazib berishimiz bizning bosh vazifamizdir. Yetuk salohiyatli, erkin fikrlay oladigan, vatanga sodiq, qat‘iy hayotiy qarashga ega yosh avodni tarbiyalash jamiyat oldidagi burchdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

- 1.ImomovK., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetic ijodi. – Toshkent, ” O‘qituvchi”, 1990.
- 2.Jumaboyev M. “Bolalar adabiyoti va folklor”. –T.,O‘qituvchi, 1990.
- 3.Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. –Toshkent: ”Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003
4. Umumta’lim maktablari 1-sinf o‘quvchilari uchun O‘qish kitobi.